

TURKIYA KONSTITUTSIYASIDA AYOLLAR HUQUQLARI**Kurbanov Xayrulla Yunusovich***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**Islom huquqi yo'nalashi**1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola Turkiya Konstitutsiyasiga gender tenglik prinsipining kiritilishiga sabab bo'lgan tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillarni tahlil qiladi. 1923 yilda Turkiya Respublikasi tashkil topgandan so'ng, Mustafa Kamol Otaturk modernizatsiya va gender tengligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. 1926 yilda qabul qilingan Turk fuqarolik kodeksi shariat qoidalarini bekor qilib, ayollar uchun huquqiy tenglikni ta'minladi. Shuningdek, 1934 yilda ayollarga saylash va saylanish huquqi berilishi muhim burilish bo'ldi. Maqlada Turkiyaning xalqaro huquqiy majburiyatlarga, jumladan, BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va CEDAW konvensiyasiga qo'shilishi, shuningdek, ayollar huquqlari harakatlari va feministik guruhlarning roli ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *Turkiya, gender tengligi, ayollar huquqlari, Konstitutsiya, Otaturk, fuqarolik kodeksi, xalqaro huquq, CEDAW, demokratik tamoyillar, inson huquqlari.*

Abstract. This article examines the historical, political, and social factors that led to the incorporation of the principle of gender equality in the Turkish Constitution. After the establishment of the Republic of Turkey in 1923, Mustafa Kemal Atatürk's commitment to modernization and the advancement of gender equality was evident. The Turkish Civil Code, enacted in 1926, abolished the discriminatory provisions of Sharia law and established legal equality for women. The significant milestone of granting women the right to vote and stand for election in 1934 further solidified this progress. The article also underscores Turkey's adherence to international legal obligations, such as the UN Universal Declaration of Human Rights and the CEDAW Convention. Equally important is the role of women's rights movements and feminist groups, whose tireless efforts have significantly contributed to the advancement of gender equality in Turkey.

Keywords: *Turkey, gender equality, women's rights, Constitution, Ataturk, civil code, international law, CEDAW, democratic principles, human rights.*

Turkiya Konstitutsiyasiga ayol va erkaklarning tenglik prinsipining kiritilishiga bir nechta tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillar sabab bo'lgan. Ushbu prinsipni kiritish orqali davlat gender tengligi va inson huquqlarini himoya qilishni maqsad qilgan [1]. Quyida bu sabablarning asosiyлари keltiriladi:

1923 yilda Turkiya Respublikasi tashkil etilishi bilan, Mustafa Kamol Otaturk jamiyatni modernizatsiya qilish va gender tengligini ta'minlashga katta ahamiyat berdi. 1926 yilda qabul qilingan Turk fuqarolik kodeksi erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquqiy tenglikka asos solgan. Bu hujjat eski shariat qoidalarini bekor qilib, ayollarga nikoh, meros, ta'lif va mehnat sohalarida huquqlar berdi. 1934 yilda ayollarga saylash va saylanish huquqi berilishi ayollarning haq-huquqlarini ifodalash uchun muhim qadam bo'ldi [2].

Ayollar huquqlarini mustahkamlash ehtiyoji XX asr o'rtalarida Turkiya BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) kabi xalqaro hujjatlarni qabul qilgan. Ushbu deklaratsiya barcha insonlar, jinsidan qat'i nazar, teng huquq va erkinlikka ega ekanini e'tirof etadi.

Ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi huquqlarini mustahkamlash uchun Turkiya 1979 yilda Ayollarga nisbatan kamsitishni tugatish to'g'risidagi konvensiyaga (CEDAW) qo'shildi.

Ijtimoiy rivojlanish va ayollarning ta'lif olishi ayollarning haqlari masalasini dolzarb qildi. Ayollar huquqlari bo'yicha harakatlar va feministik guruhlar jamiyatda tenglik prinsipini ilgari surishda muhim rol o'ynadi.

Bu masala jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligi tan olinib, 1982 yil Konstitutsiyasining 10-moddasiga barcha fuqarolarning qonun oldida teng huquqli ekanligi belgilandi.

XX asr davomida Turkiyada sanoatlashtirish va shaharsozlik jarayonlari kuchayib, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni oshdi. Bu ayollarga erkaklar bilan teng imkoniyatlar berishni talab qildi. Ayollar uchun mehnat huquqlarini kengaytirish va kamsitishni oldini olish masalasi konstitutsiyaviy darajada himoyalandi. Keyinchalik Turkiya o'z konstitutsiyasida inson huquqlarini demokratik tamoyillar asosida yanada mustahkamlashga intildi. Bu jarayon ayollar haqlari ta'minlashni ham o'z ichiga oldi. 2004 yilda 10-moddaga o'zgartirish kiritilib, davlatni ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash uchun faol harakat qilishga majbur qilish qoidasi qo'shildi [3].

Turkiya Konstitutsiyasiga gender tenglik prinsipining kiritilishiga tarixiy rivojlanish, xalqaro huquqiy majburiyatlar, ayollar harakatining o'sishi va demokratik tamoyillarning kuchayishi sabab bo'lgan. Bu qadam ayollar va erkaklar o'rtasidagi huquqiy tenglikni qonun darajasida ta'minlash va jamiyatda adolatni mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan

Turkiya Respublikasi Konstitutsiysi ayollar va erkaklarning teng huquqliligini kafolatlaydi. Konstitutsiya davlatni gender tengligini himoya qilish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga majbur qiladi. Quyida Turkiya Konstitutsiyasida ayollar huquqlariga taalluqli asosiy muddalar haqida ma'lumot keltirilgan:

1. Tenglik prinsipi (10-modda): turkcha matni “**Herkes, dil, ırk, renk, cinsiyet, siyasi düşünce, felsefi inanç, din, mezhep ve benzeri sebeplerle ayırım gözetilmeksızın kanun önünde eşittir.**

(10-modda) **Kadınlar ve erkekler eşit haklara sahiptir. Devlet, bu eşitliğin yaşama geçmesini sağlamakla yükümlüdür.”**

“Har kim tili, irqi, rangi, jinsi, siyosiy fikri, falsafiy e’tiqodi, dini, mazhabi va shunga o’xshash sabablarga ko‘ra kamsitilmasdan, qonun oldida tengdir.”

2004 yilda kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega. Davlat jinsiy tenglikni ta’minalash uchun zarur chora-tadbirlarni korishi lozim [4].

2. Oilaviy huquq (41-modda): “**Aile, Türk toplumunun temelidir ve eşler arasında eşitliğe dayanır.**” *“Oila jamiyatning asosi sifatida tan olinadi va u davlat himoyasida.”* Oilaning mustahkamligi va tenglik prinsipi asosida erkak va ayolning teng huquqliligi ta’milanadi.

3. Ijtimoiy himoya (49 va 50-moddalar): “**Kimse, yaşına, cinsiyetine ve gücüne uymayan işlerde çalıştırılamaz. Küçükler ve kadınlar ile bedeni ve ruhi yetersizliği olanlar çalışma şartları bakımından özel olarak korunurlar**”

“Hech kim o‘zining yoshi, jinsi va kuchiga mos kelmaydigan ishga qabul qilinishi mumkin emas. Voyaga etmaganlar, ayollar, jismoniy yoki aqliy nuqsonlari bo‘lganlar mehnat sharoitlari bo‘yicha alohida himoya qilinadi.”

Davlat ayollarni ish joylarida kansitilmasligi va ularning mehnat huquqlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Ayollar uchun maxsus mehnat sharoitlarini yaratish, onalik huquqini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘riladi.

4. Ta’lim huquqi (42-modda): Barcha fuqarolar, shu jumladan ayollar, ta’lim olish huquqiga ega. Ayollarning ta’lim olish huquqi kansitishlarsiz kafolatlanadi. Konstitutsiya matni “....İlköğretim kız ve erkek bütün vatandaşlar için zorunludur ve Devlet okullarında parasızdır. Bu fikrada yer alan “ve eşler arasında eşitliğe dayanır” ibaresi, 3/10/2001 tarihli ve 4709 sayılı Kanunla eklenmiştir....”

“Boshlang‘ich ta’lim barcha fuqarolar, o‘g‘il bolalar va qizlar uchun majburiy bo‘lib, davlat maktabalarida bepul. Ushbu banddagи “va er-xotinlar o‘rtasidagi tenglikka asoslanadi” iborasi 2001 yil 10 martdagи 4709-sonli Qonun bilan qo‘shilgan.”

5. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi himoya: Turkiya 2011 yilda “İstanbul Konvensiyasi”ni birinchi bo‘lib ratifikatsiya qilgan davlatlardan biridir. Ushbu konvensiyaning maqsadi ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash va ularni har tomonlama himoya qilishdir. Ammo 2021 yilda Turkiya ushbu konvensiyadan chiqishini e’lon qildi, bu esa xalqaro darajada munozaralarga sabab bo‘ldi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Turkiya Konstitutsiyasida ayollar huquqlari bo‘yicha huquqiy asoslar mavjud va davlat bu borada majburiyatlar olgan. Ularning haq-huquqlarini kafolatlaydi. Ammo amalda ushbu qonunlarning qanday bajarilishi va

gender tengligi sohasidagi holat hali ham muhokama va islohot talab qiladigan mavzulardan biri hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqiga qo'shilish jarayonida demokratik talablaridan kelib chiqib, Konstitutsiyaga erkinliklar foydasiga o'zgartirishlar kiritildi va uyg'unlashtirish uchun qonunlar chiqarildi. Oldingi sur'atlar bilan solishtirganda biroz sekinlashgan bo'lsa-da, Evropa me'yorlariga muvofiqlashtirish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

Barcha kamchiliklariga qaramay, so'nggi yillarda ayollar bilan bog'liq qabul qilingan qoidalar yaxlit ko'rib chiqilsa, ayollarning inson huquqlari me'yorini oshirganligini aniqlash mumkin. Yevropadagi qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda ayollar huquqlari bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatilib, Yevropa ishlamalarni Turkiya qonunlariga olib kirishga harakat qilinmoqda. Biroq, bu yangiliklarni ijtimoiy hayotda amaliyotga aylantirishga faqat yuqorida amalga oshirilgan huquqiy tartibga solish orqali erishib bo'lmaydi. Huquq-tartibot idoralari xodimlari ham ushbu o'zgarishlarga muvofiq o'z vazifalarini bajarishlari kerak. Yana bir muhim masala – ta'lim orqali fuqarolar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish, "gender tengligi"ni rivojlantirish va jamiyat tomonidan qabul qilinishini ta'minlash. Bundan tashqari, ayollar o'zlariga berilgan qonuniy huquqlarni ongli ravishda himoya qilishlari, huquqlar berilganidek qonunda qolib ketmasligi, ulardan kundalik faol hayotda foydalanish orqali funksional holga keltirilishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. 1.Mustafo Kamol Universiteti. Ijtimoiy fanlar instituti jurnali. Yil: 2009 Jild: 6 Son11, 328-352 TURKIYA KONSTITUTSIYALARIDA AYOLLAR HUQUQLARI VA RIVOJLANISHI Dr. Ali KUYAKSİL
2. Sevilay ÖZER. KADINLARA SEÇME VE SEÇİLME HAKKI VERİLMESİİNİN TÜRK KAMUOYUNDAKİ YANKILARI. 2013 yil.
3. Dr. Sera Reyhani YÜKSEL.Gazi Üniversitesi Hukuk Fakültesi Dergisi C. XVIII, Y. 2014, Sa. 2 175 TÜRK MEDENİ KANUNU BAKIMINDAN KADIN-ERKEK EŞİTLİĞİ
4. İnönü Üniversitesi Hukuk Fakültesi Dergisi – İnÜHFD 11(1):213-227 (2020) Kamu Hizmetlerinden Yararlanmada Kadın-Erkek Eşitliği 213 KAMU HİZMETLERİNDEN YARARLANMADA KADIN-ERKEK EŞİTLİĞİ